



“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo'i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



بوسوزکیم

غایت بونمای یردی رعایت
کری شریف یوق شاندین
کلم الناس علی قدر عقولهم

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston Respublikasining
Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi
Bursa viloyati Usmong'oz tuman hokimligi
1326 Bursa Fatih muzeyi
Bursa Uludog' universiteti**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari

2024-yil 8-fevral

Toshkent – Bursa – 2024

o'xshash: ularning deyarli barchasi borliqni tushunish bilan bog'liq, faqat mavzusi, tafsilotlari farqli. Plutarxdagi voqeaning yakuni ham deyarli aynan saqlangan. Savollarga berilgan javoblarda ham asketizm ruhi ufurib turadi. Bularning hammasi Talmuddagi "Aleksandr va Negev oqsoqollari savol-javobi" voqeasi genezisi Aleksandr va hind faylasuflarining tarixiy suhbatlaridan kelib chiqqanini tasdiqlaydi. Qiziq tomoni shuki, qadimiy tarixiy manbalarda savol-javobning oxirida abadiylik masalasi qayd etilmaydi. Talmudda esa voqeaning so'ngida donishmandlar Aleksandrga u egallagan taxt abadiy emasligini eslatishadi. Biz ayni motivni Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasidagi Aleksandr va gimnosofistlar savol-javobi so'ngida uchratamiz. Abadiylik motivining Psevdo-Kallisfendan Talmudga o'tgani yoki aksincha bo'lganini isbotlash mushkul, chunki ular deyarli bir zamonda yaratilgan, lekin bu motivning Psevdo-Kallisfendan Talmudga o'tganini taxmin qilish mantiqliroq ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Steinsaltz, Adin Even-Israel. 2013. *Koren Talmud Bavli*. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Yoma (69a). – Jerusalem: Koren. – P. 338 – 339.
2. Флавий, Иосиф. 2002. *Иудейские древности*. В 2 т. Т.I. Кн. 1-12. – Москва: «Ладомир», – С. 637 – 641.
3. Арриан. 1962. *Поход Александра*. – Москва: Наука. – С. 101 – 102.
4. Steinsaltz, Adin Even-Israel. 2017. *Koren Talmud Bavli*. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Sanhedrin, Part 2 (91a). – Jerusalem: Koren, – P. 279.
5. *Bereishit_Rabbah*. 61.7. (10.04.2021) URL: https://www.sefaria.org/Bereishit_Rabbah.61.7?lang=bi&with=all&lang2=en
6. Steinsaltz Adin Even-Israel. 2019. *Koren Talmud Bavli*. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Tamid (32a). – Jerusalem: Koren. – P. 453 – 454.
7. *The Book of the geste of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni*. 1962. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. – Massachusetts: The mediaeval academy of America. – P. 14.

“NAVOIYNING FORSIY SHOIRLIG'I...” XUSUSIDA

Orzigul HAMROYEVA

Filologiya fanlari doktori, dotsent,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Arguvon87@mail.ru

DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/TOTU8565

Annotatsiya. XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat Navoiy asarlarining manbalari va matni xususida jiddiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri sifatida navoiyshunoslikda o'z o'rniga ega. Fitrat Navoiyning ijodiy merosini xalqqa tanitish barobarida shoir asarlarining manbalari, ularning yaratilish tarixi, tarkibiy qismi, poetikasi borasida ilmiy xulosalarini maqola va risolalari orqali taqdim qilgan. Maqolada Fitratning bu boradagi tadqiqotlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *Devon, manba, qo'lyozma, matn, qasida, lirik janr, uslub, poetik shakl.*

Abstract: In the early 1900s, Abdurauf Fitrat gained prominence as a distinguished scholar, dedicating himself to extensive research on the sources and texts of Alisher Navoi's works. Fitrat made substantial contributions to the field of Navoi's studies, aiming to enlighten the public about

the creative legacy of Navo'i. His scientific findings, encompassing the origins, historical context, composition, and poetic elements of the poet's works, were disseminated through articles and pamphlets. This article delves into Fitrat's significant investigations, highlighting his noteworthy contributions to the understanding of Alisher Navo'i's literary heritage.

Key words: *Devon, source, manuscript, text, ode, lyric genre, style, poetic form.*

Navoiy hayoti va ijodiyoti har bir davrda adabiyotshunoslik oldidagi o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Poetik ko'lamning salmog'i va mukammalligi jihatdan Navoiy ijodi har davrda shoir va olimlar uchun andoza vazifasini o'tagan.

O'zbek adabiyotshunosligida Navoiy shaxsiyati, lirik va nasriy merosi, ilmiy asarlari, ularning mavzu ko'lami va uslubi masalasi borasida sof ilmiy tadqiqotlar XX asr boshlarida yangi pog'onaga ko'tarildi. Xususan, Abdurauf Fitrat tadqiqotlarining asosiy obyekti sifatida Alisher Navoiy merosiga juda ko'p bora murojaat qildi. "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasiga Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mezon ul-avzon", "Munshaot", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlaridan parchalar kiritdi, keng kitobxon ommasini Navoiy ijodiyoti bilan tanishtirdi. Fitratning bu izlanishlari ilk tadqiqot sifatida navoiyshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun navoiyshunosligi juda katta yutuqlarga erishdi: Navoiy asarlarining to'la jamlanmasi yaratildi, asarlari adabiyotshunoslik, tarix, tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi, qilinmoqda, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatilmoqda.

Abdurauf Fitrat deyarli barcha ilmiy risola hamda maqolalarida Navoiy ijodiyotiga murojaat etadi, shoir she'rlarini tahlil qilish barobarida davr adabiy muhitini belgilashda Navoiy asarlarining mazmun va shakl qonuniyatlarini bosh mezon sifatida taqdim qiladi. Xususan, Navoiyning forsiy devoni va forsiy tildagi she'rlarini tahlil qilishda qiyos usulidan unumli foydalangan holda fors shoirlarining Navoiy ijodiga ta'siri masalasini asos sifatida keltiradi. Fitratning "Navoiyning forsiy shoirlik'i ham uning forsiy devoni to'g'risida" maqolasida shoir devonining tarkibiy qismi va asarlarining yozilishi tarixi, adabiy ta'sir masalasi alohida tadqiq etiladi.[Fitrat, 2000] Navoiyning fors tilidagi ijodiyoti va mahorati borasida forsiy risola va tazkiralarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Fitrat maqolasida ularni alohida ta'kidlaydi. Xususan, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Som Mirzoning "Tuhfayi Somiy", Rizo Qulixon Hidoyatning "Majma ul-fusaho" va shu bilan birgalikda Husayn Voiz Koshifiy va Abdurahmon Jomiy asarlarida Navoiyning bu boradagi mahoratiga yuqori baho beriladi. Shu o'rinda Fitrat Boburning bu borada fikri boshqacha ekanligini ta'kidlaydi. Bobur "Boburnoma"da Navoiy xususida batafsil ma'lumot berish chog'ida forscha she'rlariga Foni taxallusini qo'ygani, "... ba'zi abyoti yomon emastur, vale aksar sust va furud" ekanligini aytadi. Maqolada e'tibor qaratilgan asosiy masalalardan biri Navoiyning forscha she'rlariga qo'yilgan taxallusining "Foni" yoki "Fanoi" ekanligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Chunki Rizo Qulixon Hidoyatning "Majma ul-fusaho" tazkirasida shoirning taxallusi "Fanoi" tarzida keltiriladi. Fitrat ayni noaniqlikka aniqlik kiritish maqsadida Boburning "Boburnoma" va shoirning "Lison ut-tayr" dostonida o'zi tomonidan "Foni" taxallusi bilan ijod qilgani borasida fikrlarini keltiradi.

Forsiy nazm ichra chun surdum qalam,

Nazmning har sinfini qildim raqam.

Fayz yetg'ach ul maoniydin mango,

Topti bilgu nazm "Foni" din mango.

Fitrat Navoiyning forsiy she'riyatida adabiy ta'sir asosiy o'rinda turishiga alohida e'tibor qaratadi, "Muhokamat ul-lug'atayn"da shoirning o'zi ta'kidlaganidek, o'n beshidan to 40 yoshga qadar fors adabiyoti ta'sirida bo'lganligini, Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk shoirlar uning butun ruhoniylariga katta ta'sir o'tkazganini ta'kidlaydi. Tabiiyki, bu

ta'sir nazira va tatabbu'lar shaklida Navoiy ijodiyotidan o'rin olgan. Navoiyning Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasiga javoban "Tuhfat ul-afkor" qasidasini yaratgani barchaga ma'lum. Fitrat maqolada Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasini "Bahr ul-abror" tarzida keltiradi. Fitrat Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasiga yuqori baho beradi. Unga javoban yozilgan Jomiyning "Lujjat ul-asror" qasidasini Dehlaviynikiga nisbatan kuchsizroq ekanligini aytadi. Ma'lumki, Dehlaviyning bu qasidasi adabiyot olamida juda yuksak bahoga ega bo'lgan. Dehlaviyning bu qasidasiga eronlik, muvarounnahrlik, xurosonlik forsiygo'y shoirlar javob tarzida tatabbu'lar bog'lashgan. Turk dunyosining mashhur shoirlaridan Hazrat Alisher Navoiy ham Dehlaviyning ayni qasidasiga tatabbu' bog'lagan. Navoiydan tashqari Hirot adabiy muhitidagi bir qancha shoirlar ham ushbu qasidaga javob yozishgan. Shulardan biri Abdurahmon Jomiy edi. Navoiy ham Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasiga yuqori baho bergan va shuning uchun ham aynan Dehlaviy qasidasiga o'xshatma yozgan.

Abdurauf Fitrat Navoiyning qasidanavislik mahoratiga yuqori baho berar ekan, negadir "Navoiyning forsiy shoirlik'i ham uning forsiy devoni to'g'rsida" maqolasida shoirning "Tuhfat ul-afkor" qasidasini 26 baytdan iborat deb keltiradi. Biroq ma'lumki, Navoiyning bu qasidasi 99 baytdan iborat. Fitratshunos olim H.Boltaboyev bu holatni Fitratning qo'lida qasidaning 26 bayti mavjud bo'lganligi bilan izohlaydi. [Fitrat, 2000] Fitrat Navoiyning "Tuhfat ul-afkor" qasidasini Jomiy va Davlatshoh Samarqandiyning bahosiga tayanib, Xusrav Dehlaviy qasidasidan qolishmaydi deya ta'riflaydi.

Fitrat Navoiyning "Nasim ul-xuld" qasidasini go'zal bir nazira ekanligiga alohida urg'u beradi. Olim garchi Navoiyning ushbu qasidasi nomini keltirmasa-da, Xusrav Dehlaviyning "Mir'ot us-safo" qasidasiga javob tariqasida yozilgani orqali uning nomiga ishora qiladi. Ma'lumki, Dusrav Dehlaviyning "Mir'ot us-safo" qasidasiga o'z davrida Jomiy ham munosib javob qasida – "Jilo ur-ruh"ni yozgan edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Abdurauf Fitrat Navoiy qalamiga mansub har bir qasidaning boshlang'ich baytini keltiradiki, bu orqali shoirning bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan qasidalar muallifi ekanligini isbotlab beradi.

Zihi ba xomayi qudrat musavviri ashyo,

Hazor naqshi har zamon ko'nad paydo. ("Ruh ul-quds")

Hojiboni shab chu shodurvon savdo afkanand,

Jilva dar xayli butoni mohsimo afkanand ("Ayn ul-hayot")...[Fitrat, 2000: 5].

Fitrat shu tarzda shoirning barcha qasidalaridan parchalar keltiradi, biroq negadir "Sittayi zaruriya"ning so'nggi qasidasi - "Nasim ul-xuld"dan namuna keltirmaydi. Balki, Fitratning qo'lida bu qasidaning matni mavjud bo'lmagandir? Har holda Fitratning o'zi bu haqda hech qanday ma'lumot keltirmaydi. Shunisi qiziqki, Fitrat Navoiy qasidalarini xususida batafsil ma'lumot keltiradi, parchalar taqdim qiladi, biroq qasidalar jamlanmasi – "Sittayi zaruriya" nomini tilga olmaydi. Bu holatni ham Fitratning qo'lida mavjud bo'lgan manbada bu asar nomi keltirilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Abdurauf Fitrat Navoiyning forsiy tildagi mahoratini ko'rsatish maqsadida "Fusuli arbaa" manzumasini tahlilga tortadi, bu manzuma haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga murojaat etadi. Jomiyning "Bahoriston" asarida keltirilgan Navoiyning forsiy ruboylaridan parchalar keltiradi.

Gar dar dayram ba guftu go'yat bosham,

V-ar dar haramam ba justu jo'yat bosham.

Dar vaqti huzur do'ba ro'yat bosham.

Dar g'iybat rui dil ba so'yat bosham.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bir manbani o'rganish, matni bilan tanishish, muallifini aniqlash kabi masalalar adabiyotshunoslikdagi eng muhim va asosiy vazifalardan biridir. Bu juda

katta mas'uliyatni talab qiladi. Abdurauf Fitrat Navoiyning forsiy devoni borasida ana shunday yirik tadqiqotni amalga oshira olgan manbashunos va matnshunos olimdir. Garchi Bobur Navoiyning forsiy tildagi she'riyatiga u qadar yuqori baho bermagan bo'lsa-da, Fitrat bu fikrga qo'shilmaydi, "uning forsiychada kuchsiz bo'lg'ani to'g'rida Bobirning ma'lumotini ko'b-da qabul etkusimiz kelmaydi", deydi [Fitrat, 2000: 5]. Fitrat Navoiyning forsiy tildagi iqtidorini ko'rsatib berish uchun shoirning forsiy devoni zarur ekanligiga ishora qiladi. 1925-yilda "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 3-sonida Vadud Mahmudning "Alisher Navoiy" nomli maqolasi nashr etiladi. Ayni maqolada Vadud Mahmud turli qidiruvlar natijasida Muso Saidjonov ismli kishining xususiy kutubxonasida Navoiyning forsha Devoni borligi haqida ma'lumot keltiriladi. [Vadud Mahmud, 1925] Fitrat Vadud Mahmud xabar bergan ushbu Devon bilan yaqindan tanishadi. Devon to'rt yarim ming baytdan iborat ekanligini aniqlaydi. Ushbu qo'lyozma nusxa Bedil "Devon"idan iborat bo'lib, Navoiyning nisbat berilayotgan forsha she'rlar devonning hoshiyachiga shikasta xati bilan ko'chirilgan. Fitrat ushbu nusxada kamchiliklar, matnida xatoliklar juda ko'p ekanligini ta'kidlaydi, boshlang'ich va oxirgi g'azallarining matla'larini keltiradi.

Ba mizon kamon sanjand mardum zo'r bozuro,
Ba dast ovardamman ham zi abruyi tarozo'ro. (Birinchi g'azalning matla'si).
Xush on soat ki miram, bar sari bolini man boshi,
Zabonam rafte az koru tu bo man dar suhan boshi. (Oxirgi g'azalning matla'si).

Fitrat devonda Navoiyning soqiynomasi ham borligini ta'kidlaydi. "Soqiynomayi Mir Alisher" nomi bilan keltirilgan ushbu she'rni "devonning butun tizmalaridan ustun va chiroylidir" deb baholaydi. Devonda soqiynomadan keyin 30 dan ortiq ruboiylar keltiriladi, devonning ba'zi o'rinlarida forsha she'rlar orasida turkiy tildagi she'rlar ham keladiki, Fitrat bu holatni kotiblar bu devonni Navoiyniki ekanligiga to'liq ishonishgan va Navoiyning turkiy tildagi g'azallarini ham Devon tarkibiga kiritgani bilan izohlaydi. Olim kutubxonasida mavjud bo'lgan "Boburnoma"da keltirilgan Navoiyning forsiy bayti bilan yuqoridagi Devon tarkibidagi baytlarni solishtirib ko'radi.

Vasfi muyi miyon u Foni,
Chi navisad qalam ki mu dorad
baytini Devondagi
Bo'yi gul az tu rangi bo' dorad,
Chashmi tar az man abro' dorad

bayti bilan boshlanuvchi g'azalning maqta' qismi ekanligini aniqlaydi. Bu holat ham Fitrat tomonidan ushbu Devonning kotiblar tomonidan Navoiyning forsiy Devoni sifatida taqdim qilingani, xalq orasida ommalashgani, uning qimmatini oshirish maqsadida Navoiyning turkiy she'rlari ham qo'shib ko'chirilgani, iqtibos va parchalar ham ayni Devondan olingani kabi fikrlar orqali dalillanadi.

Fitrat Devon tarkibidagi baytlarni chuqur o'rganadi va natijada bu Devon Navoiyniki emas, hijriy XI asrda yashagan Foni taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Muhsin nomli shoirniki ekanligini aniqlaydi. Olim fikrini isbotlash maqsadida 4 qismdan iborat dalillarni keltiradi. Fitrat dastlab g'azallar uslubiga e'tibor qaratadi. Devon tarkibiga kiritilgan Navoiyning turkiy tildagi she'rlari uslubi bilan forsiy she'rlar uslubini qiyoslaydi va ular o'rtasidagi farq juda katta ekanligiga ishora qiladi, "kitobning uslubi namunalarning (turkiy) uslubiga ko'ra kuchsiz" degan xulosaga keladi. [Fitrat, 2000: 4]

Fitrat e'tibor qaratgan ikkinchi jihat baytlar mohiyati va undagi ijodkor shaxsiyati bilan bog'liq ma'lumotlarning Navoiy hayoti va ijodi bilan mos kelmasligidir.

Nomi Foni sayri dar iqlimi shuhrat meko'nad,
Garchi xud az go'shayi Kashmir to Qobul na raft...

Yoki:

Foniy az baxti sayohat shuda dar Hind vatan,
Var na joyi tu, ba juz go'shayi Kashmir na bud.
baytlarida lirik qahramon o'zini kashmirlik ekanligiga ishora qilmoqda. Fitrat Devondagi "Sultoniyy" va "Shohiyy" taxallusiga ishora qiluvchi baytga murojaat qiladi:

Baski madhi podsho-u shahzoda go'fteam,
Goh Shohiyy shud taxallus, goh Sultoniyy maro.

Baytdan anglashiladiki, muallif Shohiyy va Sultoniyy laqablarini olgan. Bu laqablarni esa Navoiyga aloqasi yoq'. Fitrat Devonda uchrovchi hajviy parchaga e'tibor qaratadi. Bu parcha Ko'r Boqiy ismli kishiga atab yozilgan. Navoiyda esa bundan hajviy parcha yo'q. Fitrat Devondagi shu jihatlarni e'tiborga olgan holda Muso Saidjonovning qo'lidagi Devon Navoiyniki emas, Muhammad Muhsin ismli shoirniki degan xulosaga keladi. Sh.Somiy o'zining "Qomus ul-a'lom" asarida Foniy taxallusidagi ikki shoir haqida ma'lumot keltiradi. Ikkinchisi hijriy 1081-yilda vafot etgan, Shohjahonga xizmat qilgan, Kashmirda yashagan shoir – Muhammad Muhsindir.

Fitrat Navoiyning forsiy Devonini topish o'zining asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Afsuski, bu Fitratning armoni bo'lib qoldi. Devonning bugun bizga ma'lum bo'lgan Parij nusxasida dastlab qasidalar va 554 ta g'azal, 1 ta musaddas, 1 ta tarkibband, 64 ta qit'a, 72 ta ruboiy, 16 ta ta'rix, 266 ta muammo, 9 ta lug'z keltirilgan. Devonning bugungi nashrlarida shoirning "Mufradot" asari ham Devon tarkibidan o'rin olgan. .[Alisher Navoiy, 2016]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Fitrat chin ma'nodagi ilk navoiyshunoslardan biri edi. Navoiy uslubini bilmagan, uning hayoti va ijodi bilan chuqur tanish bo'lmagan olim bu qadar mukammal tahlil va tadqiqni amalga oshira olmagan va butun boshli Devonnini boshqa bir shoirga tegishli ekanligini aniq dalillar bilan isbotlay olmagan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат Абдурауф. 2000. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. - Т.: Маънавият.
2. Навоий Алишер: комусий луғат. 2016. 2 жилдлик. 1-жилд. - Т: Шарқ
3. Navoiy Alisher. 2013. Devoni Foniy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 5-jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Навоий Алишер. 2000. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. - Т.: Фан.
5. Маҳмуд Вадуд. 1925. Алишер Навоий // Маориф ва ўқитғучи.
6. Комилов Нажмиддин. 2001. Фақр нури порлаган қалб. -Т.: Маънавият.
7. Mir Alisher Navoiy. 2011. Foniy gulshani (Fors tilidanJamol Kamol tarjimas). -T.: Meriyus.
8. Ўзбек адабиёти тарихи. 1977. 5 жилдлик. 2-жилд. (XV асрнинг иккинчи ярми). - Т.: Фан.

MUNDARIJA

Shuhrat SIROJIDDINOV. So'zboshi	7
Shuhrat SİRACIDDİNOV. Ön söz	9
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI VA ADABIY TA'SIR MASALALARI I OTURUM. ALI ŞİR NEVAÎ'NIN EDEBİ MIRASININ DÜNYA MEDENİYETİNDEKİ YERİ VE EDEBÎ ETKİLEŞİM PANEL I. THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION AND THE ISSUES OF LITERARY IMPORTANCE	
Prof. Dr. Vahit TÜRK. Ali Şir Nevâyî Mirasinin Türk Kültüründeki Yeri	11
Prof. Dr. Benedek PÉRI. Mîr 'Alîşîr Navâyî and a Popular Ottoman Imitation Network From the 16 th Century	18
Muslihiddin MUHIDDINOV. Alisher Navoiy va salafлари ijodida so'z fazilati	28
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN, Pr. Dr. Dilnavoz YUSUPOVA. Global/Küresel Şahsiyet Olarak Ali Şir Nevâyî	36
Razmi GHOLAMREZA. Nevâi Şiirde Timurlu Edebi Üslubun Kurucusu (Timurlu Üslubu Teorisi)	46
Abdulah SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. O'z zamonasidan ilgarilagan buyuk ijodkor	66
Yaşar QASIMBƏYLİ. "Xosrov və Şirin" və "Fərhad və Şirin" müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq müstəvisində	71
Nafas SHODMONOV. Navoiy g'azallariga Shayboniy javoblari	76
Alimuhtar MUHTAROV. Nizami Gəncəvidən Əlişir Nəvaiyə Türk Ruhunun XXI Əsrdə Təzahürləri	82
Bahodir KARIM. Alisher Navoiy va jadidlar (mavzuga doir ayrim mulohazalar)	88
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Adabiy ta'sir: Navoiy va Nishotiy	94
Burobiya RAJABOVA. Attor va Navoiy talqinida Robiya Adaviya siymosi	99
Ahmet AKALIN. Ali Şir Nevai'nin Özbekistan'ın Yumuşak Gücü İçerisindeki Konumu	105
Ergash OCHILOV. Alisher Navoiy va Nosir Buxoriy	109
Pəri HÜMBƏTOVA. Məsihi Təbrizinin Əlişir Nəvaiyə yazdığı təxmisləri	114
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek adabiyotida Navoiy obrazi tadriji	119
Şəhla MƏCİDOVA. Əlişir Nəvai yaradıcılığında Nizami Gəncəvi əzəməti	124
Saidbahrom AZIZOV. Important Astronomical Concepts in the works of Alisher Navoi	128
Shermuhammad AMONOV. Adabiy izdoshlik: Navoiy va Tabibiy	136
Malohat PULATOVA. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy "Arba'in"larida hadislarıning adabiy talqini masalari	141
Sherxon QORAYEV. Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy	147
Erfan Eshghi nour YASIN OĞLU. Nevai ve Nesimi arasindaki benzerliklere ve	151

farkliliklarga bir bakiş	
Diyora ABDUJALILOVA. “Hayrat ul-abror” hamda “Gulshan ul-anvor” dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	164
Shahzodbek RUZMETOV. Alisher Navoiy va Lamii Chalabiylarning “Farhod va Shirin” dostonlarining syujet xususiyatlari	171
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI	
II OTURUM. NEVAI'NIN MANZUM, MENSUR VE BILIMSEL ESERLERININ ELE ALINMASI	
PANEL II. ISSUES IN STUDYING NAVOI'S POETIC, PROSE, AND SCIENTIFIC LEGACY	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy ijodida turkiy ruhiyat ifodasi	176
Almaz Ülvi BİNNATOVA. Əlişir Nəvainin “Hədisi-Ərbəin” Əsərinin Məzmun Xüsusiyyətləri	184
Sultonmurod OLIM. İlk turkiy gʻazalni kim yozgan? (Turkiy sheʼriyatda gʻazal paydo boʻlishining tadrijiy jarayonlari tahlili)	189
Prof. Dr. Funda TOPRAK. Bedāyü'l Bidāye'de Mitolojik Unsurlar (‘Ankâ-kâf - Simûrg ve Ejderha)	199
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning musalsal gʻazallar yaratish mahorati	208
Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR. Nevaî'nin Ferhat ile Şirin Mesnevisinin Halk Varyantlarıyla Mukayesesi	213
Olimjon DAVLATOV. Adl ila olam yuzin obod qil..	218
Qodirjon ERGASHEV. Sayyid Hasan Ardasher biografiyasiga oid ayrim masalalar xususida	222
Iqboloy ADIZOVA. Navoiy gʻazallarida tabiat lavhalarining oʻrni	226
Uzoq JO'RAQULOV. “Muqbil va Mudbir” hikoyatida safar motivi	230
Maqsud ASADOV. Navoiy asarlarida “tab’ ahli” talqini	234
Faridaxon KARIMOVA. Alisher Navoiy debochalari: kompozitsion-uslubiy mukammallik	238
Karomat MULLAXO'JAYEVA. “Xamsa” dostonlarida Nizomiy ta’rifi	244
Islamjon YAKUBOV. “Saddi Iskandariy” dostonining genetik asoslari va yetakchi konsepsiyasi	251
Dilrabo QUVVATOVA. “Gul yuzung koʻrgach tutar oʻz holigʻa motam bahor...”	257
Abdulhamid QURBONOV. Bodayi maqsud jomining zavqi (“Gʻaroyib us-sigʻar”dagi 304-gʻazal tahlili)	261
Usmon QOBILOV, Xolyigit XOLMURODOV. Alisher Navoiy sheʼriyatida obrazlar transformatsiyasi	268
Ozoda TOJIBOYEVA. Alisher Navoiy gʻazallarida koʻngil timsoli	272
Zilola AMONOVA, Zufnunabegim AXROROVA. “Nasoyim ul-muhabbat”da Imom Gʻazzoliy talqini	277
Dildoraxon ABDULLAYEVA. Radif va uning Navoiy lirikasida qoʻllanishi	281
Tozagul MATYOQUBOVA. Navoiy ijodiyotida hayo talqini	286
Ilyos ISMOILOV. Talmud adabiyotida Aleksandr haqidagi afsonalar	290
Orzigul HAMROYEVA. “Navoiyning forsiy shoirligʻi...” xususida	295
Durdona ZOHIDOVA, Shoiraxon XO'JAYEVA. “Nazm ul-javohir”da tasavvuf	300

maqomlarining poetik taqini	
Maryam ESHMUHAMEDOVA. Alisher Navoiy ta'rifida Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari	307
Shahnoza RAHMONOVA. O'zbek epik poeziyasidagi ishqiy-sarguzasht dostonlarda Navoiy an'analari	313
Alisher RAZZOQOV. Navoiy she'riyatida Haqiqati Muhammadiya taqini va komil inson obrazi	318
Sanobar ABDURAXMANOVA. Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm uyg'unligi	324
Nafisa RAXMANOVA. Alisher Navoiy "Farhod Va Shirin" dostonidagi obrazlarning adabiy manbalardagi ildizlari	329
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI III OTURUM. ALI ŞIR NEVAÎ'NIN ESERLERININ KAYNAKLARI VE METİN ÇALIŞMAŞLARI PANEL III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVOI'S WORKS	
Yusuf TURSUNOV. Navoiy kulliyotlari tarkibidagi "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari nusxalarining ba'zi xususiyatlari haqida	335
Boqijon TO'XLIYEV, Ilyos ISMOILOV. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"si nodir adabiy manba	339
Prof. Dr. Azizağa NECEFZADE. Mir Ali Şir Nevai'nin Eserlerinin Bakü Nüshalari	344
Aftondil ERKINOV. Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari (2010–2024-yillar)	348
Prof. Dr. Emek ÜŞENMEZ. British library'deki Alî Şîr Nevâ'î yazmalari üzerine	355
Shavkat HAYITOV. Badiiy nasrda Quro'ni karim oyatlarining o'rni	363
Zulkumor MIRZAYEVA. "Majolis un-nafois"ga yangicha yondashuv tajribasi (xorij navoiyshunosligi misolida)	374
Azadbey ALIMOV. Alî Şîr Nevâ'î'nin "Hamset-ül-Müteheyyirîn" Eseri Edisyon-Kritik Metini Üzerindeki Çalışmalar	382
Zokirjon MAMAJONOV. Yozuv asosidagi san'atlar va intertekstuallik	388
Yılmaz CANKALOĞLU. Devlet Şah'ın Tezkiretü'sh-Şuarâ' ve Hüseyin Baykara'nın Risâle Eserinde Alî Şîr Nevâ'î	393
Umedullo MAHMUDOV. Munshaot janrining turkiy adabiyotga intiqoli xususida	396
Oysara MADALIYEVA. "Badoyi' ul-bidoya" devoni qo'lyozmalari va tadqiqi tarixiga nazar	400
Akrom MALIKOV. Alisher Navoiy matnlarini kontekstual tahlil metodi asosida tadqiq qilish muammosi	409
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlariga kirgan boshqa she'rlar	417

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha



www.tsuull.uz



www.uludag.edu.tr